


ТИЛНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ТИЗИМИ,
ҚИЁСИЙ ТИПОЛОГИК ИЗЛАНИШЛАР
ВА АДАБИЁТШУНОСЛИК
МУАММОЛАРИ

МАТЕРИАЛЛАР ТЎПЛАМИ

XI



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**ТИЛНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ТИЗИМИ,
ҚИЁСИЙ ТИПОЛОГИК ИЗЛАНИШЛАР ВА
АДАБИЁТШУНОСЛИК МУАММОЛАРИ**

**МАТЕРИАЛЛАРИ БЎЙИЧА РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-
АМАЛИЙ МАҚОЛАЛАР ТЎПЛАМИ
XI**

**Бухоро
"Дурдона" нашриёти
2020**

Nursulton Shayxislamov, TVCHDPI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi, Ilmiy rahbar: Qudrat Shavkatovich Maxmudov, Xorijiy tillar kafedrasini mudiri

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O'RGATISHDA BOSHQA FANLAR BILAN BOG'LAB O'QITISH (INTEGRATSIYA) DAN FOYDALANISH

Qadim zamonlardan beri til o'rganish va bu orqali yangi olam va madaniyatni o'zi uchun kashf qilish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan va bu hozirgi kunda ham o'z mazmunini yoqotgani yo'q. Shu sababli bizning mamlakatimizda til o'rganish savodxonligini oshirish uchun qator chora tadbirlar ko'rib kelinmoqda. 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1975 sonli Qarori, 2013-yil 8-maydagi "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VM-124 sonli Qarori, 2013-yil 31-dekabrda "Chet tilini bilish darajasini aniqlash va malaka sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VM-352 sonli qarori, 2013-yil 10-oktabrda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Chet tillar o'qituvchilarining bazaviy lavozim maoshlariga oylik ustama belgilash uchun test sinovlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" Davlat Test Markazi direktorining DTM 01-339 sonli buyrug'i hamda 2017-yil 11-avgustda "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VM-610 sonli qarori shular jumlasidandir.

Yuqorida keltirib o'tilgan qaror va buyruqlar, yaratilayotgan sharoitlar va atrofda sodir bo'layotgan jadal o'garishlar va rivojlanishlarga befarq bo'lmagan holda ushbu maqolamda ayni paytda o'qish bilan birgalikda qisman pedagogik faoliyat olib borayotganim tufayli boshlang'ich sinflarda xorijiy til – ingliz tilini o'rgatishda boshqa fanlar bilan birgalikda bog'lab o'rgatish ya'ni fanlar integratsiyasidan foydalanish, boshlang'ich sinflardagi o'quvchilarga ingliz tilidagi so'zlarni osonlik bilan tushuntirib berish haqida yoritib, o'z fikrlarimni keltirmoqchiman. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo'lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmaydi. Bu sohada o'zgarishlarni xalqimizga keng targ'ib qilmasak, odamlarda ko'nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo'lolmaymiz..."

Ta'lim va tarbiya jarayoni murakkab pedagogik jarayon sifatida har bir dars soati mobaynida o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishni talab etadi. Qaysi fan bo'lishidan qat'i nazar, o'tilayotgan mavzu o'quvchilarning shaxs sifatida,

jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida shakllanishi uchun muayyan maqsad, mazmun va mohiyatni o'zida qamrab olgan bo'lishi darkor. Shu o'rinda bugungi kunda ta'lim tizimida chet tillarni o'qitishga berilayotgan e'tibor hamda o'quvchilarning chet tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishiga urg'u bergan holda aytishimiz mumkinki, chet tillarni o'qitishda ham ta'lim va tarbiyaning birligiga amal qilish barkamol avlodni shakllantirishda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi.¹ Endigina maktab ostonasiga qadam qo'ygan bola uchun yangi tilni o'zlashtirish ozgina qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shu sababli ham tilni o'rgatishda integratsiya usulidan foydalanish orqali bu muammoga yechim topsak bo'ladi. Biroq ko'plab manbalarda grammatika til strukturasi tashkil etuvchi qoidalar sifatida ta'riflangan. Qoidalarni o'zlashtirishda bolalar qiynaladi va shundan kelib chiqib zerikadi. Qiziqarli holat shuki, til grammatikasi hatto kattalar uchun ham huddi o'zlashtirish qiyin sohadek tuyuladi. Bizning fikrimizcha, aslida unday emas. Shunchaki grammatikani taqdim etish yo'llarini soddalashtirish va, albatta, qiziqarli qilish lozimligi hammaga ma'lum. Yosh bolalarga xorijiy til grammatikasini o'rgatish uchun til o'qituvchilari materialni birmuncha osonlashtirib, oddiylashtirib, bolalar qiziqishlarini oshirishi kerak. Chunki yosh bolalarda kognitiv tahlil qilish ko'nikmasi hali shakllanmagan bo'ladi. Bu yoshdagi o'rganuvchilarga biror fan, ayniqsa, xorijiy til o'rgatishda ko'rgazmalilik prinsipidan foydalanish yaxshi samara beradi. Bolalar ingliz tilida sodda muloqotga kirisha olishlari uchun grammatikadan mukammal bilimga ega bo'lishlari shart emas. Grammatik qoidalar bolalar uchun zerikarli tuyulishi tabiiy. Kichik yoshdagi bolalar shijoatga to'la bo'lishi psixologiyada isbotlangan.² Demak, bolalarga taqdim etiladigan material birinchi navbatda qiziqarli va bolalar uchun tushunarli hamda zavq bag'ishlaydigan bo'lishi maqsadga muvofiq.

1. Rasm darsi. O'quvchi o'zi yoqtirgan fanlar bilan birgalikda yangi fanni o'zlashtirishni boshlasak ham muvafaqqiyatga erishamiz. Misol tariqasida rasm darsini olaylik. Aksariyat bolalar maktabga 6, 7 yoshlardan chiqadilar. Bu yoshda yangi bilimlarni o'rganish bilan bir qatorda ijod qilish, rasmlar chizish va bo'yashga ham qiziqish katta bo'ladi. O'quvchilarga ingliz tilini rasm bilan bog'lab meva sabzavotlarni o'rgata olamiz. O'quvchidan meva rasmini chizishini va unga rang berishini so'raymiz. O'quvchi yakunlaganidan so'ng biz bu meva nomini ingliz tilida qanday aytilishi va uning ranglarini aytib bolaning ongiga singdiramiz. Misol uchun, olmaning rasmi bo'lsa: It is an apple. It is red and green. It is a banana. It is yellow. It is an orange. It is orange. Sabzavotlar bilan ham xuddi shunday, It is an onion. It is white. Or It is a cabbage. It is green. Kelgusida "What is it?", "What colour is it?" degan savollarimizga javob tariqasi shu rasmni ko'rsatib eslatib o'tsak kifoya.

¹ J. Jalolov. Chet tili o'qitish metodikasi. Toshkent «O'qituvchi» 1996

² M. Qurbonova, D. Yusupova, Ingliz tili o'qitishning boshlang'ch bosqichida grammatika o'rgatishning samarali yo'llari, «Молодой учёный» №3.1 (107.1). Fevral, 2016

2. Matematika. Bolalarga sonlarni o'rgatish uchun albatta bizga matematika fani yordamga keladi. Asta sekinlik bilan o'quvchi o'qishga kirisha boshlaydi va matematika darsida bir xonali sonlarni bir-biriga qo'shish va ayirishni o'rganadi. Birinchi bo'lib sonlarni ingliz tilidagi nomlanishi o'rganganidan so'ng bolalarning sevimli fani matematikadagi qo'shish va ayirishni ingliz tilida foydalanamiz. Misol uchun, xonadagi narsa va predmetlar nechtaligini so'rash orqali ham sonlar mavzusini qaytarib olamiz va bundan tashqari, $1+3=4$ (one plus three it is four), $2+4=6$ (two plus four it is six), $9-7=2$ (nine minus seven it is two), $8-5=3$ (eight minus five it is three), kabi misollar bilan bolalarning ingliz tiliga qiziqishini yana ham oshiradi.

3. Musiqa. Bolalar musiqa tinglashni, raqsga tushishni yaxshi ko'rishadi. Har darsda ingliz tilidagi qiziqarli va quvnoq musiqalarni qo'yib ularni shu musiqa so'zlariga mos ravishda raqs harakatlarini o'rgatsak bolada bu o'rganilayotgan materialga nisbatan yanada kengroq tushuncha paydo bo'ladi. Bu qo'shiqlarni har darsda takrorlasak bolalarning ongida beixtiyor ravishda shu so'zlarni to'g'ri tallafuz qilish uning xususiyatlari (meva va sabzavotlar mavzusida) va ularni ko'rsatish (tana a'zolari mavzusida)ni bilib oladilar. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, yosh bolalarga 45 daqiqa davomida bir joyda o'tirish qiyin. Bu musiqa va harakatli o'yinlar orqali bola zerikib ham qolmaydi.

4. Alifbo, o'qish darsi. O'quvchilar hafirlarni taniy boshlashi bilan ularda yangi narsalarni o'qish, bu o'qiganidan ustoz va ota-onasidan rag'bat eshitishni xohlaydi va bora-bora o'qishga ham ko'ngil qo'yadi. Bunda ingliz tilining harflarini o'rgatib o'z ona tilisi bilan farq qilishini ko'rsatib berishimiz mumkin. Ingliz tilida harflar boshqacha yozilib o'qilishi bilan tubdan farq qiladi. Shu sababli ham boshlang'ich sinflarga bularni o'zlashtirishda muammolar bo'ladi. Ularga faqatgina ingliz tili alifbosini o'rgatsak o'qilishi va yozilishidagi farqi o'rganish davomida sekin astalik bilan o'rgatib boramiz.

Xulosa sifatida, tilni o'rganish qiyin masala bo'lishi mumkin, qachonki, o'quvchining o'zida qiziqish bo'lmasa, lekin turli xil metodikalar vositalar yordamida buni hal qilsak bo'ladi va integratsiya usuli ham bu borada bizga ko'makchidir. Zero, bolalarga yangi dunyolarni ochishni o'rgatish, ularni qiziqtirish va fanga bo'lgan muhabbatini oshirish o'qituvchilarning qo'lida.

**Вахидова Фатима Саидовна преподаватель кафедры английского
языкознания БухГУ**

ФОРМЫ АНАЛИЗА ПСИХОЛОГИИ ПЕРСОНАЖЕЙ В РОМАНЕ ДЖЕЙН ОСТИН «ЭММА»

Сюжетная линия романа Джейн Остин «Эмма» проста. По мнению Н.Демуровой, как и в других произведениях писательницы, в основе этого повествования лежит тема заблуждения. А.Кеттл, утверждает, что темой романа является брак, поскольку «в «Эмме» рассказывается о супружестве. Роман начинается одним браком - замужеством мисс Тейлор, кончается

MUNDARIJA

Расулов З.И. Pedagogical language knowledge of an english language teacher	3
Gadoyeva M.I., Azimova M.A. Ҳикматли мақоллар таржимаси	6
Gadoyeva M.I., Azimova M.A. Ватанпарварлик руҳидаги мақоллар таржимаси	11
Gadoyeva M.I., Mehmonova Yu. Ingliz tilida artiklning sintetik usul jihatdan ifodalanishi	13
Gadoyeva M.I., Mehmonova Yu. Ingliz va o'zbek tillarida noaniqlik ma'nosining artikllar orqali ifodalanishi	15
Kabilova N., Hikmatova M. The importance of role playing activities in improving students' language skills	19
Гадоева М.И., Белицкий А. Ролевая игра-как метод педагогической технологии обучения	22
Ҳайдаров А.А., Саидова Н.А. Инглиз ва ўзбек тилларида фразеологизмларнинг лингвомаданий хусусиятлари	23
Zaripova S. The importance of chronotope in "Centaure" by John Updike	26
Ҳайдаров А.А., Н.Наврүзова. Фоностилистик воситаларда коннотатив маънонинг ўрганилиши	30
Хайдаров А.А, Имамкулова С. Сўз маънолари интенсивлиги	33
Ядгарова З. Байроннинг ўзбек адабиётига таъсири	36
Vozorova V., Bekmurodov A. Maktabgacha ta'lim muassasalarida chet tili o'qitishda axborot kommunikatsion texnologiyalar va multimedia moslamalarining o'rni	39
Xamdamova G. Cooperative learning in teaching english	41
Ғаниева О.Х., Эргашева М.Б. Жон Стейнбекнинг “Жавоҳир” асарида маънавий муаммолар ифодаси	44
Андронов Е.С. Современные требования к преподавателю иностранных языков	46
Ҳайдаров А.А., Муртазоев О. Комбинатор ва позицион фонетик ўзгаришлар	53
Sharipova F.N. Advantages of the second language	56
Sharipova F.N. Significance of the languages in society	57
Шарипова Ф.Н. Талабалар ижодий ишлашининг аҳамияти	59
Саломова М.З. Коммуникативная компетенция - как стратегическая интегративная компетенция в обучении иностранному языку	60
Саломова М. Инновационные технологии преподавания иностранных языков	62
Саломова М.З. Инглиз тилини уқитишда компьютердан фойдаланиш	63
Salomova M.Z. Zamonaviy texnologiya asosida chet tilida matnlarni o'qitish	65
Саломова М.З. Таълимда ахборот технологиялари имкониятлари	66
Байкабилов У., Шайхисламов Н. Тил – миллатнинг маънавий мероси	68
Ismatova M. Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida badiiy san'atlarning ishlatilishi	72

Qurbonov A. Ingliz tilini o'rgatishda usul va vositalardan foydalanish	74
Самиева Ш. Язык как средство при обучении русскому языку на современном этапе	75
Ражабов Я. Некоторые особенности коммуникативного аспекта обучения русскому языку нерусских учеников	77
Usmonova X. Boshlag'ich sinf o'qituvchisining nutq qobiliyati	78
Аҳмедов Д. Инглиз тили дарсларида замонавий усуллардан фойдаланишнинг аҳамияти	79
Niyazova N. Boshlang'ich sinf oquvchilarining o'qishga qiziqishlarini shakllantirish	81
Ibrogimova M. Adabiyot darslarida o'quvchilarning badiiy asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatish usullari	82
Ibodova N. Maktabda adabiyot darslarida o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari	84
Qurbonova G. Maktab o'quvchilarida til kompetentsiyalarini rivojlantirishning muhim jihatlari	85
Ҳамроева Д. Инглиз тилини турли видеолар, кино ва мультфильмлар ёрдамида осон ва қулай ўзлаштириш услублари	87
Нуруллоева М. Инглиз тилини ўргатиш жараёнида педагогик технологиянинг жиҳатлари	89
Nurmurodova I. Ona tilini o'rgatishda "test sinovi" usulidan foydalanishning ahamiyati	90
Жабборова Н. Использование дидактических игр на уроках русского языка	92
Jumayeva S. Ona tili darslarida o'yinlarda foydalanish	93
Sayfullayeva Z. Ona tili darslarida kichik guruhlarda ishlash	95
Raufova M. Xorijiy tillarni o'qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish	96
Хотамов И. Эффективное использование ИКТ в учебном процессе	98
Rahmanova G. Boshlang'ich sinflarda o'qitish samaradorligi	100
Axmedova R. Ta'lim tizimiga kirib kelgan multimedia texnologiyalarining psixо-emotsional asoslari	101
Бобобекова Ж. Хорижий тилни ўқитишда интерфаол методлардан фойдаланиш	104
Kamoliddinova V. Using modern technologies in learning english	106
Мухаммадиева Н. Хорижий тил ўқитишда маданиятлараро мулоқотни шакллантириш усуллари	108
Shayxislamov N., Maxmudov Q. Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rgatishda boshqa fanlar bilan bog'lab o'qitish (integratsiya) dan foydalanish	111
Вахидова Ф. Формы анализа психологии персонажей в романе Джейн Остин «Эмма»	113
Bobojonova N. Tovush o'zgarishlari va tovush takrori bilan hosil bo'ladigan konnatativ ma'nolar	116
Yuldasheva F., Gulomov Sh. Mingles in the foreign language classroom	119